

BANK-KREDIT PORTFELINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI

Axmadxonov Farxodxon Murodxon o'g'li

Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: *Banking kredit portfelini va kredit risklarini boshqarish masalalari banklarning kredit faoliyatini o'rganishda ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Tijorat banking kredit portfelining sifati uning kredit siyosatining muhim xususiyati hisoblanadi. Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit portfeli tushunchasining mazmun-mohiyati, kredit portfelining sifati tahlili va bank kredit portfelini samarali boshqarishga qaratilgan takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Tijorat banklari, kredit portfeli, muammoli kredit, kredit portfeli sifati, samaradorlik*

Bugungi globalashuv davrida integratsiyalashish jarayonlarining tobora avj olib borayotgani, mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi munosabatlarining kun sayin rivojlanib borishi, shunigdek, iqtisodiyotni rivojlanishining bir sababchisi sifatida bank tizimini e'tiborsiz qoldira olmaymiz. Bugungi kunda keng qamrovli iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank xizmatlarini sifatli amalga oshirish, shu jumladan asosiy banklarning an'anaviy xizmat turi bo'lmish kredit operatsiyalarining na'munali darajada bo'lishi har bir mamlakat iqtisodiyotidakatta va muhim ahamiyatga egadir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bank tizimini yanada mustahkamlash, likvidligini oshirish, moliyaviy barqarorligini yaxshilash, milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, bank xizmatlarini rivojlantirish, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan¹⁹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «<muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar. hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim>>».

Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 2017 yil 8-fevral.

tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan.

Turli ilmiy manbalarda tijorat banklari kredit portfeli" tushunchasi bank tizimi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni anglatadigan asosiy tushunchalardan biriga aylanib qoldi. Uning tez orada ommalashib ketishiga sabab shundaki, "kredit portfeli" tijorat banklarining kredit bilan bog'liq butun faoliyatida hal qiluvchi o'rin tutadi. "Kredit portfeli" tijorat banklarining kredit berish imkoniyatlarini ko'rsatadigan omillardandir..

Shu bois, tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir. Bank kredit portfelini boshqarish tizimi faoliyatining zamirida to'rt asosiy tamoyil turadi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «<Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida» gi talablari doirasida bank kreditlari asosiy mezonlar bo'yicha muntazam ravishda baholanadi; Ikkinchidan, bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarning ta'minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Bunda shuni hisobga olish zarurki, ta'minot kredit berilayotganda uni so'ndirishning bosh manbai hisoblanmaydi. Bank ta'minotdan kredit so'ndirilmasligi risklarini kamaytirish maqsadida foydalanadi, xolos.

Uchinchidan, kredit monitoringini amalga oshirish. Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) kreditni monitoring qilish;
- b) kredit portfelini monitoring qilish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda.

To'rtinchidan, kredit portfelini auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Muammoli kreditlarning tijorat banklarining kredit portfelidagi ulushi 2021 yil 1 yanvar holatiga 2,09 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 3.11 bandga oshib. 5.2% ni tashkil etdi, 2023 yil boshiga esa NPL darajasi 3,6% ga teng bo'ldi. Mahalliy tijorat banklarimizning kredit portfeli 2021 yilda 117,84% ga 2020 yilga nisbatan oshgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) miqdori 5 784,83 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, 2022 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 16 974,03 mlrd. so'mga yetgan bo'lsa, 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra NPL ning miqdori 13 992,0 mlrd. so'mni tashkil etmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida keng qamrovli tashqi omillar ta'sirida quyidagi tendensiyalar: yangi axborot texnologiyalari bazasida yangi bank mahsulotlari va xizmatlari; virtual bank va moliya texnologiyalari: bank hisobraqamini boshqarish, naqd pulli hisob-kitoblar, elektron imzo, shartnomalar tuzish, moliyaviy tashkilotlar; yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan elektron va aralash marketing uchun majmuaviy foydalanish; ichki axborotni yig'ish, saqlash va tahliliy qayta ishlash; ichki nazorat va auditning yangi imkoniyatlari; bank mutaxassislari malakasidagi o'zgarishlar: mahsulot-menejer, brend-menejer, maslahatchi, tranzaksiyalar bo'yicha mutaxassis; yangi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish avtomatlari aniqlanadi.

Tijorat banklarining aktiv va passiv instrumentlaridan foydalangan holda bank xizmatlari sifatini oshirish hamda mijozlarni jalb etish yo'li bilan aktiv operatsiyalarni samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish, aktivlarni sekyuritizatsiyalash, avtomatlashtirish, "New Privat" hamda masofaviy boshqaruv innovatsion usullarini aktiv operatsiyalarga yo'naltirish orqali boshqarishning innovatsion uslubini ishlab chiqish, aktivlarni sekyuritizatsiyalashda davlat dasturiga muvofiq berilgan kreditlar asosida ikkilamchi obligatsiyalar chiqarish orqali tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari va daromadlilikini oshirish taklifi asoslangan. Natijada, quyidagi xulosalar berilgan:

Bank xodimlari va mijozlar fikrini o'rgangan holda mijozlarni bankka jalb etishda innovatsion xizmat turlarini yanada keng joriy etish, mijozlarning vaqtini tejash maqsadida banklarda keng miqyosda barcha hujjatlashtirish ishlari bo'yicha onlayn rejimga o'tish choralarini ko'rish, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Aktivlarni sekyuritizatsiyalashni qo'llashda:

"Aktivlarni sekyuritizatsiyalash to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish, qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini kengroq yoritish va resurslar jalb etish jozibadorligini oshirish maqsadida, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari orqali aholiga aktivlarni sekyuritizatsiyalash amaliyotini targ'ib qilish. New Privat usuli orqali bank tizimiga zamonaviy xizmat turlari kiritiladi. Bu esa, mijozlarni jalb etish va bank daromadlarining ko'payish omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliqoriyev O. Tijorat banklarida xizmat turlarini rivojlantirish yo'llari. T, 2012.-
2. Rouz P.S. Bankovskiy menejment.- M.: Delo, 1997. - S. 5-6.
3. Azrilyan A.N. Bolshoy ekonomicheskij slovar. M.: Institut novoy ekonomiki, 2002.-S.588. Shirinskaya YE.B. Operatsii kommercheskix bankov. - M.: Finansi i statistika, 1995, S.16-17. G. Dremina. Instrumenti povisheniya effektivnosti bankovskix uslug v usloviyax finansovoy nestabilnosti. Vest. 2010. №3. S.160-164.

4. Олимова, Н. Х., Тешабаева, О. Н., & Жураева, Н. Х. К. (2022). Узбекистонда инновацион жараёнларни такомиллаштириш оркали корхоналар ракобагдошлигини ошириш масалалари. *Scientific progress*, 3(3), 276-282.

5. Эргашев, А. Х., & Олимова, Н. Х. (2020). Инновацияларни яратиш Ва уларни саНоаТ кор-хоналари фаолиятига жорий этишнинг асосий масалалари. In *Минтака иктисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хукукий Ва инновацион жихашари* (pp. 487-490).

6. Олимова, Н. Х., & Джурабаев, У. Б. (2020). Мамлакатимизда инновацион фаолиятнинг ривожланиши Ва реал сектор корхоналарининг технологик инновацияларга булган талабини белгиловчи омиллар тахлили. In *Минтака иктисодиётини инвестициялашнинг молиявий-хукукий Ва инновацион жихатлари* (pp. 445-449).